



O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIY TALQINI

Z.M.Mamatalimov – Alfraganus University dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek bolalar adabiyotida Amir Temur obrazining badiiy talqiniga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ma‘rifiylik, didaktika, parallel tasvir, ballada, epitet, syujet, xarakter, anafora, qarshilantirish, obraz

Adabiyot yaralibdiki, ma‘rifiylik, didaktika hamisha bosh masala o‘laroq durdona asarlar bag‘rida yashab kelayotir. Asrlar davomida ezgulik va yovuzlik, adolat va zulm, saxo va baxillik, ma‘rifat va jaholat, qanoat va nafs kabi tushunchalar yonma-yon qo‘yib insoniyatni kamolotga chorlash badiiy adabiyotning dolzarb vazifasi bo‘lib kelgan va bu jarayon bundan buyon ham uzluksiz davom etaveradi. Parallel chizgilar yosh kitobxon ko‘z o‘ngida yaxshi-yu yomonni ajratib olishga xizmat qilsa, bu chizgilarning tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar hayoti bilan vobastalikda tasvirlanishi voqelikning ishonchliligini yanada orttirishiga shubha yo‘q.

O‘zbek bolalar adabiyotida T.Adashboyevning “Qismat” balladasi ijodkor do‘sti Yuriy Saakyan so‘zlab bergan hikoyat asosida yaratilgan. Ballada shoir (T.Adashboyev – Z.M.)ning 1991-yil bahor chog‘i Qrim o‘lkasiga dam olishga borgani, u yerda turkman

shoiri Og‘ageldi Allanazarov, arman shoiri Yuriy Saakyanlarni uchratib, bilan bir muddat hamsuhbat bo‘lgani voqeasi bilan boshlanadi. Safari oxirlagan shoir ikki hamrohiga bittadan “Temurnoma” kitobini sovg‘a qiladi. Aynan shu kitob balladaga asos bo‘lgan voqeaning ochqichi – kalit vazifasini o‘taydi. Yuriy Saakyan “Temurnoma”ni varaqlay turib, Amir Temur hayoti bilan bog‘liq bir voqeani so‘zlab beradi. Asar voqealari bo‘ylab o‘tgan ikki syujet chizig‘i sarkarda shaxsiyatining qarama-qarshi ikki qutbini kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon qiladi. Asarda uchraydigan Tabriz, Hayaston, Arpali kabi joy nomlari voqealar qamrovini muayyan hudud bilan bog‘lash bilan bir qatorda, so‘zlanayotgan hikoyaga tarixiy ruh baxsh etishga xizmat qiladi. Birinchi lavhada Temur Hayastonni taslim qilib, Tabriz (Eron) sari o‘tayotganda nabiralari bilan mashoq terayotgan chol-kampirga duch keladi:

Rizqin izlab keng daladan
Cholu kampir yukinib.
Sarak terar to‘rvasiga
Yetmish ikki bukilib.
Qo‘sh nabira boshloqlarni
To‘qmoq bilan yanchadi.
Qo‘shin bilan ishlari yo‘q,
Kim horib, kim charchadi [1; 171].

Mezbonning sarkardani ko‘moch bilan siylashi, jangchilarga bir ho‘plamdan bo‘lsa-da atala-umoch ilinishi o‘quvchida chol-kampirning anchayin sahovatpesha insonlar sifatida taassurot uyg‘otishi aniq. Asar qahramoni – sohibqiron ham ularning qo‘li ochiqligi, bag‘rikengligiga ich-ichidan tasanno aytgan bo‘lsa ajab emas. Shu sababdan pishiqchilikka arang yetib kelgan,

ochlik, yupunlik, nochorlikdan aziyat chekayotgan fuqarolariga rahmi kelgan amir butun lashkarini kun bo‘yi somon to‘plab, poxol yig‘ib, boshloq terishga safarbar qiladi. Natijada arpa-bug‘doy qoplanib, cholning hovlisiga uyuladi. Hatto ortib qolgan hosil kulbaning mo‘rkonidan quyuladi. Bu nafaqat arpa-bug‘doy hosili, balki turmush qiyinchiliklariga bo‘yin



egmay, o'z mehnati bilan kun ko'rayotgan, qo'li kalta bo'lsa ham, o'zgalardan parcha nonini ayamaydigan saxiy insonlargina muyassar bo'ladigan HOSIL ekanligini o'quvchi darhol anglaydi. Ikkinchi lavhada tamoman o'zga manzara namoyon bo'ladi. Taqdir taqozosi bilan yana Araratga yo'li tushgan sarkarda cholning holidan xabar olish uchun navkarlarini jo'natadi. (Bu sohibqironning raiyat holidan doim ogoh

bo'lib turgani, yaxshilikka doim yaxshilik bilan javob qaytarganidan dalolatdir). Ammo cholning ochko'z xotini navkarlarni hovlisiga kiritmaydi. Ko'moch, atala, yalpiz qo'shilgan choyni eslatishsa ham, kampir jig'ibiyron bo'lib, askarlarni qarg'ab uyidan haydaydi. Hukmdorga bu xabar yetkazilgach, tavakkal qilib o'zi cholning uyiga boradi.

Cholning burni osmon qadar,
Nimadandir domangir.
O'dag'aylab chiqib keldi
Qo'sh nabira davangir.

Bunday muomaladan g'azablangan hukmdor chol yashaydigan ovulning kulini ko'kka sovradi. "Ochko'z" epiteti bir o'rinda cholning xotiniga nisbatan qo'llangan bo'lsa, boshqa o'rinda cholning o'ziga nisbatan ishlatiladi. Avvalgi manzarada amirni ko'moch bilan siylagan, askarlarga bir yutumdan bo'lsa-da umochini ilingan chol-kampir ballada so'ngida tamoman teskari qiyofada namoyon bo'lishadi. Oqibatda yomonlik o'z jazosini oladi!

Balladada Amir Temur shaxsiyatining ikki muhim jihati tasvirlanadi. Butun lashkarini dalada ikki nabirasi bilan mashoq terib yurgan chol-kampirga kun bo'yi yordam berish uchun safarbar etishi sohibqironning g'amxo'rlik, rahmdillik, adolatparvarlik hislatlarini yuzaga chiqaradi. Chol-kampir yashaydigan ovulning kulini ko'kka sovrishi esa sarkardaning ochko'z, nonko'r, munofiq kimsalarga qarshi ayovsiz munosabatini ifodalaydi.

Anvar Obidjonning "Temur bobo rivoyati" she'ri ham o'zbek bolalar adabiyotida Temur

shaxsiyati, uning davlatchilik siyosati haqida so'z yurituvchi dastlabki asarlardan biridir.

Garchi sarlavhada "rivoyat" so'zi qo'llansa-da, she'r nasihat ruhida yozilgan. O'n baddan iborat bu she'r bolalar adabiyotida kam uchraydigan o'n ikki bo'g'inli she'riy shaklda yozilgan. Shoir bandlarning yakunlovchi misralaridagi o'zaro qofiyadoshlikni saqlab qolgan holda yangi-yangi fikrlarni ilgari surishi mumkin edi. Ammo kelajakka tiyrak ko'z bilan boqib turgan yosh avlod o'z so'zlarining ma'nomazmunini chuqurroq anglashi, doimo yodda tutishini jonu dilidan istaganidan "Bu gaplarning mag'zin chaqib ulg'ay, bolam" misrasi orqali o'z pandlarini qayta-qayta uqtirishga intiladi.

Bu she'rda muallif ko'p hayotiy sinovlarni boshidan o'tkazgan donishmand qiyofasida gavdalanadi. Bosiqlik, mulohazakorlik, mehribonlik bilan shonli o'tmishdan, ajdodlarimizdan faxr tuyg'usi kelgusi nasllar ongu shuurida kurtaklashini xohlaydi.

Amir Temur bobom desang, hurkar yovlar,
Qo'zi oyin muzlaridek erir g'ovlar,
Yaqin og'ang bo'la boshlar g'irt "birov"lar,
Bu gaplarning mag'zin chaqib ulg'ay, bolam.
Temur bobong sukutin ham naqli bo'lgan,
Temur bobong kulgusin ham jahli bo'lgan,
Temur bobong qilichin ham aqli bo'lgan,
Bu gaplarning mag'zin chaqib ulg'ay, bolam [2; 113].

Birinchi badda yovlarning hurkishi, to'siqlarning mahv bo'lishi, "g'irt birov"larning og'a bo'lishga intilishi zamirida Temur boboning

kuch-qudratda tengsizligi, jahongirligi, harb ishida mohirligiga ishora qilinsa, keyingi bandlarda "qaddi Qur'ondan past, tog'dan



baland” sohibqironning xarakteriga mos chizgilarga o‘rin beriladi. Bunda anafora (Temur bobong) ta’kidni kuchaytirishga xizmat qilsa, qarshilantirishlar (sukut – naql, kulgu – jahll, qilich – aql) fe’li-sajiyani yorqinroq ochish vazifasini bajarmoqda. Qo‘zi oyi (mart), bitik (kitob), cherik (lashkar) singari asl turkiy so‘zlar Temur davri hayotiy manzaralarini yanada jonlantirishga xizmat qilishi bilan alohida diqqatga molik. Guyo yosh kitobxonda xayolan o‘tmishga safar qilgandek taassurot uyg‘onadi. Xalq dostonlarida ezgu maqsadda safarga otlangan qahramonga yoshi ulug‘lar (bobo, buvi, ota-ona) oq yo‘l tilash bilan birga nasihat qilgani

kabi “Temur bobo rivoyati”da “Yurt meniki deb berilma keriklikka”, “Zoti azal sarsonlarni yondosh qilma”, “Lekin zog‘ bo‘l surdan chiqqan sheriklikka” kabi nasihatimiz misralar uchraydi. Buni xalq dostonlarida epik qolip holda uchraydigan “Kamtarga kamol, manmanga zavol”, “Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga, yomon bilan yursang, qolasan uyatga”, “Yaxshiga yondash, yomondan qoch” xalq maqollaridan ijodiy oziqlanish natijasi sifatida tushunish zarur.

Xulosalovchi band biroz jumboqli. Xotima o‘quvchini jiddiyroq mulohaza yuritishga, yanada teranroq fikrlashga undaydi:

Bobong senga aytmagan bir arzi qoldi,
Hali o‘tib bo‘lmagan bir darsi qoldi,
Shuncha meros berib ham bir qarzi qoldi,
Bu gaplarning mag‘zin chaqib ulg‘ay, bolam.

“O‘qituvchining o‘g‘itlari” she’ri “Temur bobo rivoyati”ning mantiqiy davomiday taassurot o‘yg‘otadi. Ammo bu o‘rinda VATAN, MILLAT, ONA TILI degan bebaho tushunchalarni o‘quvchi ongiga singdirishda

Farg‘oniy, Beruniy, Koshg‘ariy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Navoiy, Bobur singari buyuk vatandoshlarimiz nomi vosita bo‘lib xizmat qilayotir.

Ulg‘ayib, yot yurtga borsang,
Ne atalar eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.
Shunda, mening qutlug‘ tilim –
Navoiyning she’ri, degil.
Yurtim – Ulug‘begu Bobur,
Amir Temur yeri, degil [3; 4].

Istiqlol sharofati bilan bugungi kunda ming-minglab vatandoshlarimiz chet ellarga sayohat qilmoqdalar, o‘g‘il-qizlarimiz dunyoning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqdalar. Sayohat, tahsil davomida ular, albatta, boshqa yurt vakillari bilan tanishadilar, do‘stlashadilar.

Bordi-yu, orada she’rda aytilgan mazmunda savol-javob bo‘lib o‘tsa, ajdodlarimiz kimligini bilgan xorijliklar o‘ziga kerakli xulosa chiqarib olishi tayin. Buning uchun yosh avlod, avvalo, shonli tariximizni puxta bilishi, qolaversa, millat daholariga munosib voris bo‘lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adashboyev T. Orzularim – qo‘sh qanotim. – Toshkent: Sharq, 2003.
2. Obidjon A. O‘g‘irlangan pahlavon. – Toshkent: Cho‘lpon, 2006.
3. Obidjon A. Jajji-jajji kulchalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.
4. Barakayev R. Jonajonim, she’riyat. – Toshkent: Cho‘lpon, 1997.
5. Ibrohimova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. – Toshkent: O‘MK nashriyoti, 2005.
6. Mamatalimov Z. Anvar Obidjon she’riyatida folklorizmlar. / “Theoretical & Applied Science” International Scientific Journal (USA), Filodelfiya, 2019.
7. Mamatalimov Z. Anvar Obidjon she’riyatining janr va mavzu rang-barangligi. / “Til va adabiyot” elektron jurnali, 2023.